



XORIJIY DAVLATLAR QUOLLI KUCHLARINING CHO'L HUDUDIDA JANGOVAR HARAKATLAR OLIB BORISH TAJRIBASI

Xonsaidov Muhsinali Muhammadaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Amerika Qo'shma Shtatlarini qurolli kuchlari Iroqdagi, Rossiya Federatsiyasi Suriya Arab Respublikasidagi qurolli mojarolari xamda yaqin sharq mintaqasida olib borilgan jangovar xarakatlar, Afrika mamlakatlari hamda Fors ko'rfasidagi so'nggi qurolli mojarolar, Afg'onistondagi Sovet qo'shinlarining jangovar xarakatlari va operatsiyalarni olib borishda ilg'or tajribasi yoritilgan*

Kalit so'zlar: *jangovar xarakatlar, qurolli mojarolar, operatsiya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Suriya Arab Respublikasi QK lari, vazifalar, tajriba.*

XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshlaridagi tarixiy tajriba, mahalliy urush va qurolli mojarolar saboqlarini chuqur o'rganmasdan hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan va sodir bo'layotgan harbiy harakatlarni mohiyatini to'g'ri tushunish va kelajakda ularning rivojlanishining asosiy yo'nalishlarini belgilash juda qiyin. Shuning uchun harbiy xavf va tahdidlarning xarakteri va ehtimollik darajasini, ularning qurolli mojarolar va urushlarga aylanish imkoniyatini o'rganish zamonaviy sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada turli sharoitda mahalliy urushlarning tajribasini, kuch va vositalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini, urush xarakteri va usullarini o'rganishning dolzarbligi shubhasizdir.

Hozirgi kunda Yaqin sharq mintaqasi, Afrika mamlakatlari hamda Fors ko'rfasidagi so'nggi qurolli mojarolar va operatsiyalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, harbiy harakatlar teatri asosan tekisliklarda va cho'l hududlarida olib borilmoqda. Jumladan, Afg'oniston Islom Respublikasidagi qurolli nizolar, Amerika Qo'shma Shtatlarini qurolli kuchlari Iroqdagi, Rossiya Federatsiyasini Suriya Arab Respublikasidagi qurolli mojarolari bunga yaqqol misol bo'ladi. Har bir mamlakatda olib borilayotgan jangovar harakatlar o'z xarakteriga ko'ra boshqa hududdagiga nisbatan tubdan farq qiladi.

Bunda asosiy e'tibor bo'linmalar joylashgan joylarni (pozitsiyalarni) qanotlarini mustahkamlashga va qo'shimcha ravishda kuchlarni (pistirmalarni) qo'yishni nazarda tutadi. [1].

Misol uchun Iroqda AQSh qurolli kuchlari tomonidan olib borilgan "Cho'l bo'roni" operatsiyasiga tayyorgarlik ko'rishda taktik bo'g'indagi bo'linmalar komandirlari bir qator o'ziga xos jihatlarni hisobga olishgan:

bo'linmalarning harakatlari uchun mavjud yo'nalishlarning cheklanganligini; qum tepalari, tuzli botqoqliklar va toshli cho'llar kabi o'tishi qiyin bo'lgan keng maydonlarni; qiyin yashash sharoitlari, yo'llar tarmoqlari va aerodromlarning cheklanganligi, ishlab chiqarish bazasi rivojlanmaganligi sababli hududning zaif



rivojlanishini; haddan tashqari issiqligini, qum bo‘ronlari va suv yetishmasligi kabi sharoitda qurol va texnikaladan foydalanishning qiyinchiliklarini; qattik sovuq va qish mavsumida qor yo‘qligini; mahalliy moddiy resurslarni cheklanganligini; hududning ochiq joylari qo‘shinlarning niqoblash va yashirinishning murakkabligini; orientirlashning qiyinligini.

2020 yil 27 sentabridan 10 noyabrigacha Tog‘li Qorabog‘ hududida yuz bergan qurolli nizoni biz robotlashtirilgan, masofadan boshqariladigan texnika va yuqori aniqlikdagi uruvchi qurollar muhim rol o‘ynagan yangi turdagi urushni kuzatdik. Ushbu harbiy nizoda tomonlarning texnik rivojlanish jihatdan teng bo‘lmaganliklari va shunga mos ravishda turli xildagi urush uslublarida qarama-qarshi janglarni olib borganligi bilan nomutanosib nizo xarakteriga ega bo‘ldi.

Qorabog‘dagi yangi urushda erishilgan muvaffaqiyat faqatgina texnik ustunlik va Ozarbayjon Bosh shtabining nostandart tarzda qabul qilgan qarorlari natijasida qo‘lga kiritilmadi. Qorabog‘dagi harbiy harakatlar teatrining strategik va operativ darajalari misolida, amerikaliklarning zamonaviy harbiy nazariyalari hisoblangan «Boyda sikli» yoki «Boyda xalqasi» tushunchalari yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu tushuncha, kuzatish – aniqlash – qaror qabul qilish – harakatni amalga oshirish kabi ilmoqli ketma-ketlikda ifodalanadi. Ozarbayjon ushbu ketma-ketlik asosida hamda o‘zining texnik ustunligi tufayli armanlarni ortda qoldirdi. [4].

Shundan kelib chiqib, o‘t otish tizimi dushmanning tirik kuchi va o‘t otish vositalarini mudofaa ostonalarida, uni old qirradi va qanotlarida o‘t ochib talafot yetkazishni, shuningdek, joyning tekis xususiyatlaridan foydalangan holda to‘g‘ridan – to‘g‘ri otish uchun jihozlash; o‘t otish vositalarning tarqoq joylashganligi sababli o‘t ochish tizimi dushmanning ehtimoliy hujum qilish yo‘nalishlariga yaratish; mudofaa rayonining ikkilamchi hamda kuch va vositalar zaif uchastkalarida artilleriya, tank va tankka qarshi vositalar bilan xavfli yo‘nalishlarda manyovr amalga oshirish; asosiy yo‘nalishlarda pulemyotlardan frontal va kesishgan usulda o‘t otish amalga oshirish, olovli qop yaratish va olovli pistirmalar joylashtirish bundan tashqari, har bir yo‘nalishlarda tankka qarshi zaxira va harakatchan to‘siq o‘rnatuvchi otryadlar yaratish.¹ Asosiy tarkibda harakatlanayotgan bo‘linmalarga tank va ognemyot bo‘linmalar zaxiralar qo‘shilishi amalda qo‘llanilgan. Ushbu zaxiralar xavfli bo‘lgan yo‘nalishlarga oldindan tayyorlangan yoyilish marralariga yaqinroq joylashganlar va bo‘linmalarni harakatlarini bevosita ta‘minlab turilgan. Xususan, iroqliklar cho‘l hududida jangovar harakatlar olib borishda amerikalik uchuvchilarni chalg‘itish maqsadida, shikastlanmagan tank yoniga shinalarni yoqish bilan Amerika razvedkasi tomonidan shikastlangan zirhli texnikalarni miqdori ko‘p ekan, degan tasavvur o‘yg‘otishga erishgan. (1-rasm) Keyinchalik, cho‘l hududida jangovar harakatlar olib borishda tank kelish ehtimoli bor yo‘nalishlarda Iroq qo‘shinlarini mudofaa polosasida 2 metr balandligidagi tuproqli uyumlar tashkil qilingan. Amerikaliklar Iroq qo‘shinlarini tor-mor keltirish uchun zovurlarni tuproq bilan to‘ldirish usulidan foydalanishgan.

¹ Учебник. М.М. Ибрагимов Опыт боевого применения вооруженных сил зарубежных армий в военных конфликтах современности. –Т., - 2017 , - Б 124



Tanklarga buldozerlar uskunalarini ilinib, ular bevosita zovurlar bo‘ylab Cho‘lda jangovar harakatlar olib borish tajribasi okoplarni ko‘mib ketayotgan tanklarni zaiflashganligi sababli PJMLarining o‘tlari bilan qo‘llab-quvvatlab turilgan.

Xuddi shunday holat Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) da cho‘l sharoitda mudofaa jangini tashkillashtirish va olib borish, qulay joy sharoiti, uning muhandislik jihatdan jihozlanishi va olov kuchidan foydalanib, dushmanning ustun kuchlari hujum qilganda o‘z pozitsiyalarini ushlab turadigan, ularga talafot yetkazadigan va dushman hujumini qaytaradigan jang turi sifatida qo‘llanilgan². Cho‘l sharoitida mudofaa chuqur eshelonlashtirilgan, tankka qarshi, aviatsiyaga qarshi, artilleriyaga qarshi va desantga qarshi faol harakatlar olib borishga shay bo‘lishi lozim bo‘lgan. Jangovar harakatlarni shakllantirish chog‘ida qanotlar va oraliqlarni ta‘minlash uchun zaxiralar barpo etilgan. cho‘l hududida mudofaada o‘t ochish tizimini tashkil etishga katta e‘tibor qaratilgan. Mudofaa barqarorligi transheyalarning qatlamli joylashishi bilan ortib borgan. Eng yaqin balandliklardagi, "yashirin" joylarga talafot yetkazish uchun minomyot va artilleriya vositalari ishlatilgan. Eng muhim yo‘nalishlarda birinchi eshelonlarning tankka qarshi himoyasini kuchaytirish uchun o‘ziyurar artilleriya qurilmalari jalb qilingan va ba’zi hollarda ikkinchi eshelonda joylashgan tanklar qarshi hujum uchun qo‘llanilgan. Mudofaani tashkillashtirish va olib borishda qo‘shinlarining jangovar tartibi “oldida kamroq kuchlar va orqada ko‘proq” tamoyiliga asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblangan. Tamoyilga asosan dushman ustun kuchlarini ichkaridagi oldindan tayyorlangan mudofaa marralariga manyovrni amalga oshirish orqali dushmanga talafot yetkazib, asosiy kuchlarning qarshi hujumga o‘tishi uchun qulay sharoit yaratilgan.

Yana shuni ta’kidlash joizki, Arab-Isroil urushlari (1956-yil 29 oktabrdan 12 noyabrgacha) bo‘lib o‘tgan Arab-Isroil urushi tajribasiga ko‘ra, cho‘l hududida pozitsion xarakterni saqlab qolgan holda mudofaa uzluksiz va tarqoq holda olib borilgan³. Mudofaa harakatlari ko‘rinishi cheklangan holatlarda ham olib borilgan va ikki yoki uch eshelondan iborat bo‘lib, har biri ikki yoki uchtadan iborat zaxira ajratilgan. Isroilliklarning Misr mudofaa polosalarini yorib kirishga qaratilgan ko‘plab urinishlari muvaffaqiyatli bo‘lmagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Arab mamlakatlari juda katta ustunlikka ega bo‘lishgan.

Operatsiyadagi ikki mamlakat kuch vositalari nisbati

Arab mamlakatlari	Kuch va vositalar	Isroil	Nisbat
230 ming	shaxsiy tarkib	90 ming	2.5:1
600 dona	tank	30 dona	20:1
650 dona	samolyot	130 dona	5:1
530 dona	artilleriya	-	mutlaq

² Учебник. М.М. Ибрагимов Опыт боевого применения вооруженных сил зарубежных армий в военных конфликтах современности. –Т., - 2017, - Б 87

³ Учебник. М.М. Ибрагимов Опыт боевого применения вооруженных сил зарубежных армий в военных конфликтах современности. –Т., - 2017,- Б 260



120 dona	XXM vositalari	-	mutlaq
130 dona	kema	-	mutlaq

Choʻl hududida mudofaa polosasi asosan vzvod tayanch punkti bilan jihozlangan. Piyodalar vzvodi tanklar bilan kuchaytirilgan boʻlib alohida yoʻnalishlarda qoʻllanilgan.

Yana shunday olib borilgan tajribalaridan biri, Eron-Iroq urushida muvaffaqiyatni rivojlantirgan va oʻt ochish tizimini yanada rivojlangan. Choʻl hududlarida Iroq qurolli kuchlari asosan pozitsion mudofaa harakatlari olib borgan. Unda asosiy va ikkinchi mudofaa polosasi muhim oʻrin egallagan. Asosiy mudofaa polosasi birinchi eshelon boʻlinmalari tomonidan mudofaa qilingan. Diviziyaning jangovar tartibi ikki eshelonda tuzilgan va asosini boʻlinmalarda taktik guruhlar tashkil etilgan kuchli zaxiralar ajratish bilan jangovar tartibini tuzgan. Asosiy eʼtibor hisob-kitoblar va aloqa tugunlarini ushlab qolishga qaratilgan. Choʻl sharoitida mudofaa janglarida Iroq qoʻmondonligi oʻz qoʻshinlarini yanada ustalik bilan va mustahkam boshqargan, frontda ham, chuqurlikda ham manyovrchan kuch va vositalaridan foydalangan.

Choʻl hududida jangovar harakatlar olib borish mobaynida piyodalar boʻlinmalari shtatidagi tankka qarshi vositalar tanklarga qarshi kurashda dahshatli qurol ekanligini koʻrsatgan. 1985 yildagi jangovar harakatlar jarayonida eronliklar qoʻmondonligi tarixda birinchi marta toʻlaligicha tankka qarshi qoʻl granatomyotlari (RPG) va stanokli tankka qarshi granatomyotlar (SPG) bilan qurollangan vzvod va rotalarni qoʻllagan. Bundan tashqari, Eron armiyasi boʻlinmalari tarkibida motosikllarga minishgan, harakatchan, tankka qarshi qoʻl granatomyotlari bilan qurollangan tanklarni qiruvchi guruhlar tashkil etilgan⁴.

1982-yil iyun-iyul oylarida choʻl hududida frontning Janubiy sektorida boʻlib oʻtgan janglarda Iroq qoʻshinlari mobil mudofaa oʻtkazish qobiliyatini namoyish etgan⁵. Shunday qilib, iroqliklardan ustun kelgan eronliklar bosimi ostida Iroq boʻlinmalarining birinchi eshelon boʻlinmalari ikkinchi pozitsiyaga chekinib, dushmani olov qoplariga tortdilar soʻngra, artilleriya zarbalari va vertolyot olovlari bilan dushmanga maksimal darajada talafot yetkazishgan. Tanklarni pistirmalardan qoʻllash juda katta samara bergan. Choʻl hududida jangovar harakatlar olib borishda tank pistirmasi taktikasi tankchilar boʻlinmasi mudofaa uchastkasining birinchi eshelonida motopiyoda boʻlinmalar joylashtirilgan va ikkinchi eshelonning dushman tanklari hujumi yoʻnalishida tanklar pistirmasi uchun joylar tanlangan, aksariyat hollarda, bu joylar dushman tanklarining yonidan (qanotlaridan) oʻt ochish uchun tayyorlab quyilgan. Dushman tanklari motopiyoda boʻlinmalarining mudofaasini yorib oʻtishga muvaffaq boʻlib, pistirmadagi tanklarning qanotlardan ochgan oʻtiga duchor boʻlgan. Tanklar bir pozitsiyadan dushman tanklariga imkon qadar katta (maksimal) talafot yetkazgach, avvaldan tayyorlangan boshqa pozitsiyalarga oʻtgan.

⁴ [https:// ru.m.Wikipedia. Org./wihi](https://ru.m.wikipedia.org/wihi). 25.05.2023 йил.

⁵ [https://zen. Yandex.ria. Ru](https://zen.Yandex.ria.Ru). 11.05.2023 йил.



Afg‘onistondagi (1979-1989 yillar) Sovet qo‘shinlarini jangovar faoliyati o‘ziga xos ahamiyati bir necha omillarga bog‘liq bo‘lgani va bularning eng muhimi - mamlakatning fizik-geografik va iqlim sharoitidir⁶. Cho‘l hududida qum qatlami sababli qo‘shinlar va texnikalarni qo‘llashda hamda manyovr qilishida, bo‘linmalarni jipslangan holda joylashtirishga qiyinchilik tug‘dirgan. Qo‘shinlar boshqaruvini turli qum bo‘ronlari va kun qizdirishi sababli qiyinlashgan va o‘z o‘rnida qo‘shinlar jangovar kurash vositalarining ustunligini amalda yo‘qqa chiqargan.

Cho‘l hududida jangovar vazifani bajarish davomida barcha qo‘shin turlari asosan kichik bo‘linmalar - vzvod, rota, batalon tarkibida harakatlangan. Hatto katta operatsiyalarda ham batalon va rotalar jangovar harakatlarni mustaqil ravishda ularga belgilangan cho‘l hududlarida bir-biriga yaqin bo‘lmagan tarzda, olov bilan qo‘llab - quvvatlash imkoni bo‘lmagan hollarda harakatlangan va olovli qo‘llab - quvvatlash uchun artilleriya yoki armiya aviatsiyasini chaqirishi mumkin bo‘lgan.

Cho‘l hududida artilleriya olovini va aviatsiyani yo‘naltiruvchilari doimo batalon komandirning boshqaruv punktida bo‘lgan. Jangovar harakatlarda barcha bo‘linmalar piyoda tartibida harakatlangan. Ko‘p joylar, bo‘linmalar ortidan jangovar texnikalarning borishiga imkon bermagan va bu sabablar “zirhli guruh”larning paydo bo‘lishiga olib keldi (yagona boshqaruv ostida rota va batalon ZTR va PJM)⁷. Cho‘l hududida zirhli guruhlar jangovar tartibning mustaqil elementiga aylangan va batalon yoki rotaning umumiy vazifasida jangovar texnikalar o‘tadigan yo‘nalishda vazifalarni bajargan.

Xorijiy armiyalarni cho‘l hududida jangovar harakatlar olib borish tajribasini o‘rganish va tahlil qilish, ularni tashkiliy shtat tuzilishi, mudofaa harakatlarini olib borishi quyidagi xulosalarni beradi

Xorijiy davlatlarning cho‘l hududida jangovar harakatlar olib borish tajribasi bo‘yicha taqqoslash jadvali

Taktik ko‘rsatkichlar	Isroil	AQSh	Rossiya	Eron
	batalon	diviziya	diviziya	qism
Mudofaa polosasi kengligi	-50-60 km	-30-40 km	-30-40 km	-30-40 km
Mudofaa chuqurligi	15-20 km	-20-50 km	-20-50 km	-12-15
Ikkinchi eshelon uzoqligi	20-30 km	-25-35 km	-	-
QP (QKP) uzoqligi	-	-15 km	-15 km	-4-6 km
Jangovar qo‘riqlov uzoqligi	-	15-20 km	15 km	-

⁶ Боевое применение вооружения и военной техники в горно-пустынной местности Афганистана. - М., - 1990, Б-144

⁷ М.М Курганбеков. История войн и военного искусства. Книга 2, Т., - 2010 г.; Учебник. М.М. Ибрагимов Опыт боевого применения вооруженных сил зарубежных армий в военных конфликтах современности. - Т., - 2017, - Б 49



Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, Chet el armiyalari bo‘linmalar nisbatini taqqoslaganda unchalik farq sezilmaydi lekin, shaxsiy tarkib farqi juda katta ekanligini ko‘rish mumkin. Shuni inobatga olib, cho‘l hududida jangovar harakatlar olib borishga jalb qilingan bo‘linmalarni qo‘llab-quvvatlovchi bo‘linmalar bilan kuchaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M Kurganbekov. Istoriya voyn i voennogo iskusstva.
2. Опыт боевого применения вооруженных сил зарубежных армий в военных конфликтах современности.
3. Боевое применение вооружения и военной техники в горно-пустынной местности Афганистана.
4. [https:// ru.m.Wikipedia. Org./wihi.](https://ru.m.wikipedia.org/wiki)
5. [https://zen. Yandeks.ria. Ru.](https://zen.Yandex.ria. Ru)